O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 47
2025-yil "29" avgust

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori
_____ Sh.Sh. Yoldashova
2025-yil

JAHON ADABIYOTI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**100000 - Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti**

SAMARQAND – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
JAT1304	2025-2026	3	5

Fan/mavzu turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jahon adabiyoti	60 (20/40)	90	150

2. I. Fanning mazmuni

Jahon adabiyotshunosligida muayyan bir davr adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan, o‘zining yuksak ijodiy uslubiga ega bo‘lishi barobarida millatlar adabiyoti rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan, o‘z maktabiga ega bo‘lgan yirik ijodkorlarning hayot yo‘li va adabiy faoliyatini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

“Jahon adabiyoti” fanini o‘qitishdan maqsad – jahon adabiyotining tarixiy taraqqiyotini, sodir bo‘lgan va bo‘layotgan adaviy jarayonlarni jahon adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini o‘rganish.

“Jahon adabiyoti” fanining vazifalari:

- talabalarda jahon adabiyotining antik davridan to bugungi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari va tamoyillari haqida tasavvur hosil qilish;
- Jahon adabiyotining badiiy barkamol namunalari, ularning janr xususiyatlari va badiiyati, yozuvchining uslubini tadqiq etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Fan bo‘yicha talabalaming bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

jahon xalqlari adabiyotining ma’naviy asoslari haqida bilimga;

-jahon adabiyoiti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy- siyosiy voqealar va ularning insoniyat badiiy tafakkuri tadrijiga ta’siri masalasini o‘rganish ko‘nikmasiga;

- jahon adabiyotida sodir bo‘lgan jarayonlar, ijodiy metod va usullarning o‘ziga xos jihatiarini ajrata bilishi;
- G‘arb va sharq adabiy aloqalarining qadimiy ildizlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- jahon adabiyoti namunalarini badiiy tahlil eta bilish, ularda ko‘tarilgan g‘oyalarni va ilgari surilgan fikrlarni to‘g‘ri baholay olish;
- globallashuv jarayoni va yuksak texnologiyalar asrida jahon adabiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularning millat adabiyotiga ta’siri haqida o‘zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I – MODUL. 1-mavzu. Qadimgi Sharq va Antik davr Yunon adabiyoti

Shumer – Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti. Mifologiyasi, adabiy namunalari, qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta’siri masalasi o’rganiladi. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko‘lami va janrlari, “Gilgamish haqida doston” eposi haqida ma’lumot beriladi. “Ramayana”- hind eposi haqida tushuncha berish. Yunon adabiyoti tarixi bilan tanishtirish. Yunon adabiyotining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni va ahamiyati bilan tushuntirish. Antik adabiyot va madaniyatning tarixiy ahamiyati, yunon mifologiyasi, titanlar va qahramonlar to‘g‘risidagi afsonalar haqida ma’lumot berish. Qahramonlik eposlari, Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari, qadimgi yunon lirikasi yuzasidan tasavvur hosil qilish. Attika davri yunon adabiyoti ijtimoiy hayotda demokratik tamoyillarning o‘rnatilishi, dramaning paydo bo‘lishi, qadimgi yunon teatri haqida ma’lumot berish. Buyuk fojianavislar Esxil, Sofokl, Yevripid ijodi bilan tanishtirish. Yunon komediyasining paydo bo‘lishi, Aristofan ijodi haqida ma’lumot berish. Attika nasriy adabiyoti, Rim hukmronligi davri yunon adabiyoti, Plutarx va Lukian ijodi

haqida tushuncha berish.

2-mavzu. Qadimgi Rim adabiyoti.

Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari, Rim adabiyoti tarixi bilan tanishtirish. Rim adabiyotining yunon adabiyoti bilan bog'liqligini, jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish. Keyingi davr Yevropa va jahon adabiyoti taraqqiyotida Rim adabiyotining o'rni, dastlabki Rim shoirlari, Plavt va Terentsiy ijodi haqida ma'lumot berish. Notiqlik san'ati, Sitseron ijodi, Sezar va Rim tarixi.

3-mavzu. Uyg'onish davri adabiyoti. Italiya va Fransiya, Angliya va Ispaniyada Uyg'onish davri adabiyoti.

Ilk uyg'onish davri. Sonet janri. Sharq Renessansi tushunchasi. Sharq va G'arb aloqalarida tarjimalaming roli. Sharqning Yevropaga ta'siri. Dante Alig'eri ijodi. "Ilohiy komediya". Dante va al-Farg'oniy. Ibn Sino, Ibn Rushd va Dante. "Risola fil ishq" va "Ilohiy komediya". Italiya va Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti. Petrarka ijodi. Jovanni Bokachcho va uning "Dekameron" asarida Sharq motivlari. Rumiy, Navoiy va Bokachcho. "Dekameron" da Ibn Sino obrazi. Fransua Rable ijodi. "Gargantyua va Pantagryuel" romani haqida. XV-XVI asrlar Angliyadagi tarixiy vaziyat. Ingliz shotland balladalari. Tomas Mor ijodi. "Utopiya" asarida ijtimoiy adolat masalasi va barkamol jamiyat orzusi. XVII asr Angliya adabiyoti. Shekspir ijodi - Angliya uyg'onish adabiyotining cho'qqisi. Adabiyotshunoslikda Shekspir masalasi. Shekspir- dramaturg ("Romeo va Juletta", "Gamlet" va "Qirol Lir" asarlarining g'oyaviy- badiiy jihatlari). Migel de Servantes ijodi. Don Kixot - "abadiy obraz" timsoli.

4-mavzu: Klassizim va Ma'rifatchilik davri davri adabiyoti (XVII asr)

Jahon adabiyotida metodlar va adabiy oqimlarning paydo bo'lishi. Barokko - "noto'g'ri shakl marvaridi". Barokko adabiyotida inson va olam konsepsiyasi. Klassitsizm. Nikola Bualo va uning "Poetik san'at" asari. Rene Dekart. Janrlar nazariyasi. Uch birliku qonuni. Ispaniya adabiyotida klassitsizm. Ispaniyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Ispaniya madaniyatining "oltin asri". Lope de Vega va uning maktabi. Drama estetikasi. Kalderon ijodi. Diniy-falsafiy drama. Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. P'er Kornel dramaturgiyasi. "Said" tragediyasida - burch va tuyg'ular kurashi. Jan Batist Poklen (Mol'er) komediyalari. "Tartyuf" tragikomediyasi. "Don Juan". Mol'er komediyalarida xudbinlik, baxillik va ikkiyuzlamachilik illatlarining satirik manzarasi. Angliya adabiyotida klassitsizm. Angliyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Jon Milton she'riyati. "Yo'qotilgan jannat" poemasi. "Ma'rifatchilik" tushunchasi. Ma'rifatchilik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Rokoko uslubi. Angliya - ma'rifatchilik adabiyoti beshigi. Daniel Defo - yangi davr yevropa romani asoschisi. "Robinzon Kruzo" - yangi roman shakli namunasi. Jonatan Svift ijodi. "Bochka haqida ertak" – o'tkir satirasida xalq ozodligi g'oyasi. "Gulliveming sayohatlari" – romanida ma'rifatchilik utopiyasi. Sentimentalizm. Tomson, Yung, Grey she'riyati. Stem nasri. Fransuz adabiyoti. Fransuz inqilobi arafasida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Rokoko uslubi. Lesaj, Monteske ijodi. Ma'rifatchilik realizmi. Sentimentalizm. Volter dramaturgiyasi. Deni Didro - san'at nazariyotchisi. Didro romanlari. "Roxiba". Jan Jak Russo. "Yuliya va yangi eloiza" - fransuz sentimentalizmi cho'qqisi.

5-mavzu. Jahon adabiyotida romantizm (XIX asr) realizm va tanqidiy realizm tamoyillari.

Romantizm ushunchasining genezisi. Romantizm estetikasi. Romantizm adabiy yo'nalishi. Romantizmning taraqqiyot bosqichlari. Fridrix Shlegel - romantizm nazariyasining asoschisi. Nemis romantizmining o'ziga xos xususiyatlari. Ernst Teodor Amadey Gofman ijodi.

“Oltin tuvak” - ertak qissasi. Genrix Geyne she’riyati. Ingliz romantizmining taraqqiyot bosqichlari. Valter Skott- tarixiy roman asosichisi. Skott ijodida folklor motivlari. Jorj Noel Gordon Bayron she’riyati. “Don Juan” - “she’riy roman” namunasi. Fransuz romantizmi. Fransuz romantizmining o’ziga xos xususiyatlari. Fransua Rene de Shatobrian, Jermena de Stal, Lamartin ijodi. Viktor Gyugo - fransuz romantizmining dohiysi. Avrora Dyupen - Joij Sand - psixologik va ijtimoiy roman namoyandasi. Realizm tushunchasi. Realizm estetikasi. Stendal ijodi. “Qizil va qora” romani. Onore de Balzakning hayoti va ijodi. “Sag’ri teri tilsimi” romani. Prosper Merime ijodiyoti. Gyustav Flober tanqidiy realizmi. “Bovari xonim” romani. Charlz Dikkens ijodida ingliz jamiyati, xalqi mentaliteti, ijtimoiy ziddiyatlaing haqqoniy tasviri. Meri Ann Evans - Jorj Eliot romanchiligi. Realizm yo’nalishlari.

6-mavzu. Ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi realizm. Naturalizm va simvolizm. Neoromantizm va estetizm

Ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi realizm: Gi de Mopassan, Jorj Meredit, Tomas Gardi, Genri Jeyms, Teodor Drayzer. Ijtimoiy-falsafiy yo’nalishdagi realizm: Anatol Frans, Xenrik Ibsen, Jorj Bernard Shou. Hajviy-yumoristik yo’nalishdagi realizm: Genrix Mann, Mark Tven, O. Genri. Qahramonlik yo’nalishidagi realizm: Romen Rollan, Jek London. Naturalizm va simvolizm. Naturalizm prinsiplari. Emil Zolya (Fransiya) maktabi. Simvolizm. Verlen (Fransiya) ijodi. Neoromantizm va estetizm. Germaniya va Avstriyada neoromantizm. R. Vagner musiqali dramasi. Angliyada neoromantizm. J. Konrad, Artur Konan Doyl. Estetizm xususiyatlari. Oskar Uayld.

7-mavzu. XX asr jahon adabiyoti “Ommabop adabiyot” Jahon adabiyotidagi ijodiy metod va adabiy yo’nalishlar

Detiktiv janr. Edgar Alan Po (AQSh). “Morg ko‘chasidagi qotillik”. Agata Kristi (Angliya). Jorj Simenon (Belgiya). Triller. Stiven King (AQSh). “Kerri” Fantastika. Gerbert Uels. “Ko‘rinmas odam”. Ayollar romani. Margaret Mitchel (AQSh). “Shamollarda qolgan hislarim”. Kolin Makkalou. “Qamishzorda kuylayotganlar”. Sharq va G‘arb madaniyatlari sintezi. Yapon, xitoy, kores adabiyotining jahon adabiyoti kontekstida. Akutagava Ryunoske. Kobo Abe. Kavabati Yasunari. “Yangi lotinamerika romani”. Xorxe Luis Borxes, Xulio Kortasar (Argentina), Gabriel Garsiya Markes (Kolumbiya, Nobel mukofoti sovrindori). Modernizm tushunchasi. F. Kafka ijodi. Neorealizm. Magik realizm. Ekzistensializm. Sartr, Kamyu. “Yangi roman”. Natali Sarrot. “Absurd teatri”. Semyuel Bekket. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti. Ernest Xemenguey. Fisdjerald. Intelektual-falsafiy nasr: T. Mann (“Sehrli tog’”, “Doktor Faustus” romanlari, “Venetsiyadagi o‘lim”, “Mario va sehrgar”), G. Gesse (“Cho‘1 bo‘risi”, “Biser o‘yini”), Karl Chapek (“Salamandrlar bilan kurash”). “Ong oqimi” Virdjiniya Vulf. Postmodemizm. Umberto eko.

II – MODUL. 8-mavzu Rus adabiyoti.

Qadimgi rus adabiyoti (XI-XVII asrlar) XVIII asr rus adabiyoti. Rus adabiyotining oltin davri (XIX asr rus adabiyoti).

Rus adabiyotining paydo bo`lishi va shakllanishi. “Igor jangnomasi”. Kiev Rusi adabiyoti (X-XIII), Shimoliy-sharqiy Rusi davri (XIII-XV) adabiyoti va Moskva Rusi adabiyoti (XIV–XVII) haqida ma’lumot berish. XVIII asr rus adabiyotining yirik vakillaridan Mixail Lomonosov, Aleksandr Sumarokov, Gavriel Derjavin, Nikolay Karamzin va h.k.lar faoliyati haqida ma’lumot berish. Aleksandr Sergeevich Pushkin ijodining o‘ziga xosligi, Mixail Lermontov shiddatkor va isyonkor ijodkor sifatida. Nikolay Vasilevich Gogolning “Dikanka qishlog‘i yaqinidagi o`tkazilgan kechalar” to‘plami va “O‘lik jonlar” poemasi, Chexov ijodi.

9-mavzu. Lev Tolstoy va Fyodor Dostoyevskiy hayoti va ijodi

Lev Tolstoy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berish. Uning "Urush va tinchlik" roman-yepopeyasi, "Tirilish romani va "Iqrornoma" asari. Fyodor Dostoevskiyning ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-falsafiy romanlari. "Telba", "Jinoyat va jazo" "Aka-uka Karamazovlar" romanlari tahlili.

10-mavzu. Rus adabiyotining kumush davri (XIX asr oxiri va XX asradabiyoti). Zamonaviy rus adabiyoti (XX asr oxiri va XXI asrboshlari).

Aleksandr Blok, Sergey Yesenin, Mixail Bulgakov, Mixail Sholoxov hayoti va ijodiy faoliyati. XX asr oxirida ijod qilg an ijodkorlar va XXI asr boshlarida rus adabiyotida shakllangan yangi yo'nalishlar va qarashlar.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'satma va tavsiyalar

1. Shumer – Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti. Antik adabiyot tushunchasi. "Gilgamish haqida doston" eposi Gomer ijodi. ("Iliada" va "Odessiya" asarlari tahlili misolida)
2. Tragediya janri. Esxil, Sofokl, Yevripid. Yezop masallari. Aristofan, Plutarx va Lukian ijodi.
3. Jahon adabiyoti taraqqiyotida Rim adabiyotining o'rni, Plavt va Terentsiy, Sitseron ijodi. Vergiliy Ovidiy, Goratsiy ijodi haqida ma'lumot
4. Lotin tilidagi adabiyot. O 'rta asrlar qahramonlik eposi, Roland haqida qo'shiq,"Tristan va Izolda" haqida ma'lumot.
5. Rumiy, Navoiy va Bokachcho ("Masnaviyi ma'naviy", "Sab'ai sayyor", "Dekameron" asarlarining tahlili misolida). Ibn Sino, Ibn Rushd va Dante. Petrarka ijodi (sonetlari tahlili).
6. Shekspir "Romeo va Juletta", "Gamlet" va "Qirol Lir" asarlarining badiiyati. Tomas Mor va Migel de Servantes ijodi. Don Kixot - "abadiy obraz" timsoli.
7. Nikola Bualo, Kalderon ijodi. P'er Kornel va Jan Batist Poklen (Mol'er) ijodini o'rganish, Jon Milton she'riyati
8. Daniel Defo, Jonatan Svift ijodi, Lesaj, Monteske, Deni Didro, Jan Jak Russolar ijodini o'rganish
9. Romantizmning taraqqiyot bosqichlari, Ernst Teodor, Amadey Gofman ijodi. "Oltin tuvak" - ertak qissasi. Genrix Geyne she'riyati. Jorj Noel Gordon Bayron, Fransua Rene de Shatobrian, Jermena de Stal, Lamartin, Viktor Gyugo adiblar ijodini o'rganish.
10. Realizm va uning yo'nalishlari. Stendal,Onore de Balzak, Prosper Merime, Charlz Dikkensijodi. Gyustav Flober tanqidiy realizmi. "Bovari xonim" romani.
11. Gi de Mopassan, Jorj Meredit, Tomas Gardi, Genri Jeyms, Teodor Drayzer, Anatol Frans, Xenrik Ibsen Jorj Bernard Shou, Genrix Mann, Mark Tven, O. Genri, Romen Rollan, Jek London asarlarini o'rganish.
12. Naturalizm va simvolizm. Emil Zolya, Verlen, J. Konrad, Artur Konan Doyl, Estetizm xususiyatlari. Oskar Uayld.
13. Detiktiv janr.Edgar Alan Po (AQSh). Agata Kristi (Angliya). Jorj Simenon (Belgiya). Triller. Stiven King (AQSh). Gerbert Uels. Margaret Mitchel (AQSh). Akutagava Ryunoske. Kobo Abe. Kavabati asunari, Kolin Makkalou, Gabriel Garsiya Markes ijodi va asarlarini o'rganish.
14. Kamyu, Natali Sarrot, Semyuel Bekket, Ernest Xemenguey, T. Mann, G. Gesse, Virdjiniya Vulf, Umberto Eko ijodini o'rganish.
15. "Igor jangnomasi". Kiev Rusi adabiyoti (X-XIII), Shimoliy-sharqiy Rusi davri (XIII-

XV) adabiyoti va Moskva Rusi adabiyoti (XIV–XVII)

16. Mixail Lomonosov, Aleksandr Sumarokov, Gavriel Derjavin, Nikolay Karamzin, Aleksandr Sergeevich Pushkin, Mixail Lermontov,Nikolay Vasilevich Gogol, Chexovlar ijodini o'rganish.

17. Lev Tolstoy “Urush va tinchlik” roman-yepopeya, “Tirilish” romani va “Iqrornoma” asarlari tahlili.

18. Fyodor Dostoevskiyning “Telba”, “Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar” romanlari tahlili

19. Aleksandr Blok, Sergey Yesenin, Mixail Bulgakov, Mixail Sholoxov hayoti va ijodini o’rganish.

20. XX asr oxirida ijod qilgan ijodkorlar va XXI asr boshlarida rus adabiyotida shakllangan yangi yo‘nalishdagi asarlarni o‘rganish

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og‘zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma’lumotlarni jadval ko’rinishida ifodalash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko‘rgazmali qurol tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to‘plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo‘q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro‘yxatini tuzish;

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Homer: “Iliada” va “Odisseya” dostonlari tahlili
2. “Bilgamish” va “Ramayana” asarlari tahlili
3. “Go’ro’g’li” va “Mahabharata” asarlarida obrazlar
4. Sofoklning “Shoh Edip” asarida tragizm
5. “Jahon adabiyoti” jurnalidan maqola va taqrizlar
6. “Shohnoma”da mifik, diniy, badiiy masalalar tahlili
7. Masalchilik va Ezop masallari tahlili
8. Antic davr she’riyati va Rim shoirlari
9. Antik davr adabiy-estetik qarashlari, “Poetika”, “Ritorika”
10. “Medeya” tragediyasi va “Arganavtlar” qissasi tahlili
11. Dantening “Ilohiy komediya” asari badiiy tahlili
12. F. Rable “Gargantyua va Pantagryuel” asari tahlili
13. Shekspir “Hamlet” asari tahlili
14. Shekspirning “Qirol Lir” asari obrazlari tahlili
15. Servantes “Don Ki Xot” asari g’oyaviy -badiiy tahlili
16. F. Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasi tahlili
17. D.Defoning “Robinzon Kruzo” romani tahlili
18. Gyote “Faust” asari poetik tahlili

	19. M.Bulgakov “Usta va Margarita”, “It yurak” asarlari tahlili 20. Stendal “Qizil va qora” romani obrazlar olami tahlili 21. Balzak “Gorio ota” va boshqa asarlari tahlili 22. “Bovari xonim” romanida obrazlar tasviri va talqini 23. L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida badiiy obrazlar 24. Pushkinning “Evgeniy Onegin” she’riy romani tahlili 25. G. Markes “Yolg’izlikning yuz yili” asarida realistic va mifologik element 26. F. Dostoevksiyning “Jinoyat va Jazo” romani tahlili 27. Mopassan “Azizim”, “Hayot” asarlari tahlili 28. A.Kamyu “Begona” asari tahlili 29. E.Xeminguey “Chol va dengiz” asari tahlili 30. J.Joys “Uliss”, F.Kafka “Jarayon” asarlari tahlili 31. Jahon adabiyotshunosligida Gomer masalasi 32. Najmiddin Komilovning “Tafakkur karvonlari” asari haqida mulohazalar 33. Fozila Sulaymonovaning “Sharq va G’arb” asari haqida mulohazalar 34. Dilbar Qambarovaning “Qur’on baxsh etgan ilhom” asari haqida mulohazalar 35. Firdavsiy va uning “Shohnoma” asari. 36. Umar Hayyom va Vilyam Shekspir. 37. Gyote va Hofiz. 38. Pushkin va Sharq. 39. Gomer va Beruniy. 40. Bokachcho ijodida sharq motivlari. (Rumiy, Navoiy va Bokachcho) 41. Najib Mahfuz ijodi. 42. Akutagava Ryunoske ijodi. 43. Orxon Pomiq ijodi. 44. Dante ijodiga Sharqning ta’siri (Dantening “Ilohiy komediya” siga Ahmad Farg’oniy va Ibn Rushd asarlarining ta’siri misolida) 45. Prust va lining “Yo‘qotilgan vaqtni izlab” romanining tahlili 46. Ong oqimi. J. Joys. “Uliss” romanining tahlili. 47. F. Kafka. “Qal’a”, “Sizif haqida afsona”, “Jarayon” romanlarining tahlili. 48. Ekzistensializm. A. Kamyu. “Begona” romanining tahlili 49. Brext dramaturgiyasi 50. Yangilangan realizm. Psixologizm. E. Xeminguey va uning “Alvido qurol”. 51. “Chol va dengiz” asarlarining tahlili 52. Postmodernizm. Umberto Eko.
3.	**V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** • jahon xalqlari adabiyotining ma’naviy asoslari haqida bilimga; • jahon adabiyoiti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy- siyosiy voqealar va ularning insoniyat badiiy tafakkuri tadrijiga ta’siri masalasini o‘rganish ko‘nikmasiga; • jahon adabiyotida sodir bo’lgan jarayonlar, ijodiy metod va usullarning o‘ziga xos jihatiarini ajrata bilishi; • G‘arb va sharq adabiy aloqalarining qadimiy ildizlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish; • Jahon adabiyoti namunalarini badiiy tahlil eta bilish, ularda ko’tarilgan g‘oyalarni va ilgari surilgan fikrlarni to‘g‘ri baholay olish; • Globallashuv jarayoni va yuksak texnologiyalar asrida jahon adabiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularning millat adabiyotiga ta’siri haqida o‘zining tahliliy, tanqidiy

	mulohazalarini bayon eta bilish malakasiga ega bo‘lishi lozim. • Jahon adabiyotini o’qitishda qo’yiladigan hozirgi zamon talablarini bilishi • Jahon adabiyoti fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta’minlash • Mashg‘ulotlarda ta’lim resurslaridan samarali foydalanish • O‘qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o‘quvchilarga yetkazish ko’nikmalariga ega bo’lishi • Jahon adabiyoti darslarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash • Jahon adabiyoti darslariga qo’yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish, mumtoz asarlar tili, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarning o’ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, ushbu asarlarning jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko’rsatgan ta’siri bilan bog’liq masalalarni bilish malakalariga ega bo’lishi • Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma‘ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *Bliz so‘rov* • *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blis so‘rov* • *blis test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va seminar tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. U. Hamdamov, A. Qosimov Jahon adabiyoti 2017 2. Fayzulla Boynazarov Jahon adabiyoti O‘quv qo‘llanma 2006 3. Sh.Normatova Jahon adabiyoti 2008 4. U. Hamdamov., A. Qosimov. Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: “Barkamol fayz media” 2017 352 b. 5. Xalilova R. Chet el bolalar adabiyoti. Metodik qo‘llanma. B.:2021. 6. U. Hamdamov, A. Qosimov. Jahon adabiyoti. T.:”Akademnashr” 2024 **IX. Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Alimuhamedov M. Antik adabiyot tarixi. T., 1975. 2. O. Qayumov, Q.Azizov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1987. 3. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). T., “O‘qituvchi” 1987. 4. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. T., “O‘zbekiston”, 1997. 5. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., “Ma’naviyat”, 1999. 6. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. T., G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va 7. san’at nashriyoti, 1990. 8. Sulaymonova F. Shekspir O‘zbekistonda. T., Fan, 1978.

9. Do‘stmuhamedov Q. “Nobel mukofotini olgan adiblar”, T.: “Ma’naviyat”, 2002.
10. Ramayana T., 1978.
11. Gomer. Iliada. T., 1988.
12. Esxil. Zanjirband Promotey. T., 1978.
13. Sofokl. Shoh edip. T., 1979.
14. Yevripid. Medeya. T., 1985.
15. sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola, T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
16. Dante Aligeri. Ilohiy komediya. T., 1975.
17. Shekspir Vilyam. “Hamlet”. T., 1991.
18. Gyote I.V. Faust. T., 1974.
19. Svift J. Gulliverning sayyohatlari. T., 1985.
20. Bayron J.G. Saylanma. T., 1974.
21. Heyne H. Germaniya. Qish ertagi.
22. Heyne H. Yoshlik iztiroblari. T., 1997.
23. Balzak.O. Gorio ota. T., 1968.
24. Merime P. Karl IX saltanatining yilnomasi. T., 1978.
25. Stendal. Qizil va qora. T., 1986.
26. Flober G. Bovari xonim. T., 1976.
27. Mopassan G. Hayot Azizim. Novelalar. T., 1987.
28. Zolya e. Hamal. T., 1982.
29. Xeminguey e. Chol va dengiz. T., 1963.
30. Markes G.G. Oshkora qotillik qissasi. Yuz yil tanholikda. T., 1990. 31. Kamyu A. Begona. T., 1995.
31. Kafka F. Jarayon. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2003 yil 9-11-sonlar.
32. Koelo. P. Alkmyogar. T., 2004.
33. Hesse Herman. Cho‘l bo‘risi. T.: “Sharq”, 2006.
34. Markes G.G. Buzrukning kuzi. JA. 2005, 6-7-8-sonlar.
35. Moem S. “Oy va sariq chaqa”. JA. 2006, 1-2-sonlar.
36. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. T.: “Fan”, 2006
37. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. T.: “Fan”, 2006

Axborot manbaalari

1. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. http://ensiklopediya.uz – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. http://ziyouz.uz – O‘zbek va jahon adabiyoti portali
4. http://ziyonet.uz – O‘zbekiston milliy ta’lim portali
5. http://kitob.uz/ - Respublika bolalar kutubxonasi
6. http://www.infolib.uz – Respublika Axborot kutubxona markazi

7. Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil ___ _____-dagi ___-son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**

8. **Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:**

G.N.Imomqulova– Samarqand davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti.

9. **Taqrizchilar:**

F.Buriyeva- Samarqand davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi PhD o‘qituvchisi (ichki)

M.Davronova - Sharof Rashidov nomidagi SamDU “Istiqlol darvi adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi professori (tashqi)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 1 o'rinni egallagan Harvard University (AQSh) dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

https://harvard.simplesyllabus.com/api2/doc-pdf/6nq6855z8/Summer-Term-2023-Full-Term-HUMA-S-110-1-Masterpieces%2FWorld-Literature.pdf?locale=en-US

Fan dastur Tillar fakultetining 2025-yil 23-maydagi 10.1-sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan ma'qullangan.

Tuzuvchi: **G.N.Imomqulova**

Kafedra mudiri: **I.H.Yoqubov**

Fakultet dekani: **I.B.Utayeva**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **R.H.Musulmonov**

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI DOTSENTI USAROVA LAYLO IBRAGIMOVNA TOMONIDAN TAYYORLANGAN “JAHON ADABIYOTI” FAN DASTURIGA TAQRIZ

Majburiy ta’lim tizimida adabiyot darslarini uning maqdasiga muvofiq tarzda, imkon qadar samaraliroq tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni qamrab olish muhimdir.Taqdim etilgan “Jahon adabiyoti” fan dasturi 60111400-O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Qadimgi davr, Uyg‘onish davri, XX asr jahon adabiyoti, Rus adabiyoti adabiy jarayonini qamrab olgan. Mazkur o‘quv dastur turli davrlarga oid jahon adabiyoti namoyandalari-shoir va yozuvchilar hayoti va ijodiy merosi haqida tugal ma’lumotlar berish, madaniy aloqalar va adabiy muhit haqida ma’lumotlar berishni maqsad qilib olgan.

Oliy ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni yetishtirish, jahon adabiy merosga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda talabalar kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda ushbu fan muhim ahamiyatga ega, “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” bo‘yicha “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yo’lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”ga mos keladi.

“Jahon adabiyoti” fanini to‘liq o‘zlashtirish talabalar adabiy-estetik didini yuksaltirish barobarida ularda ilmiy tadqiqot olib borish malakasini shakllantirish uchun ham zamin hozirlaydi. Mazkur fan dasturini o‘quv jarayonida qo‘llashni tavsiya etaman.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisiPhD **F.Buriyeva**

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti Usarova Laylo Ibragimovnaning 60111400-O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan "Jahon adabiyoti" fanidan tayyorlangan dasturga

TAQRIZ

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi, 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi yo'nalishiikkinchi bosqich talabalari uchun targ'ib etilgan mazkur fan dasturi va unga muvofiq ishlab chiqilgan fan sillabusi "Jahon adabiyoti" fani talabalarda ilm haqidagi nazariy bilimlarni egallash, ilmiy tadqiqiy faoliyat yurita olish amaliy ko'nikmalarni, ilmiy dunyoqarashni, til ta'limida qo'llanadigan metodik usullar va turli yondashuvlarni shakllantirish vazifalarini bajarish maqsadi ko'zda tutilgan.

Dastur an'anaviy tarzda "Kirish", "Asosiy qism", "Mustaqil ta'lim", "Kreditlarni olish uchun talablar", "Baholash me'zonlari" va "Foydalanilgan adabiyotlar"dan iborat. Dasturning kirish qismida fanning maqsadi, asosiy qismda ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlari mavzulari va ular bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim qismida mustaqil ta'limning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Dasturda keltirilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatiga jiddiy e'tirozimiz yo'q. Faqat ushbu ro'yxatni ilmiy tadqiqot ishining turli jihatlarini ochib beruvchi adabiyotlar bilan boyitish zarur. "Jahon adabiyoti" fani bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, Jahon adabiyoti fanining nazariy muammolarini anglash, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o'rganish va uning madaniy va ma'naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va jahon adabiyoti namunalarini qiyoslab o'rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan ko'nikma va malakalarini egallay olishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib"Jahon adabiyoti" fani uchun tayyorlangan fan dasturi va fan sillabusi davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga mos holda tuzilganligi inobatga olinib, ularni amaliyotda qo'llash mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi: **f.f.d., prof.M.I Davronova**